

YOSH AVLOD ONGIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

Firmetova Shaxnoza Maqsudovna

*Chirchiq shahar 3-umumiy o‘rta ta‘lim
maktabining MMIB direktor o‘rinbosari
ozodqulov@gmail.com*

Annotatsiya

Hozirgi kunda mamlakatimiz jadal sur‘atlarda har sohada rivojlanish sari ildamlayotgan taraqqiyotning yangi davrida, Yangi O‘zbekistonimizning tinchligi va uning taraqqiyotiga rahna solishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida yosh avlodlarda buzg‘unchi, yod g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar

Ma‘naviyat, axborot, globallashuv, tezkor axborot, internet saytlari, yangiliklar, mafkura, emotsional ta‘sir, terrorchilar, jamiyat, psixologik ta‘sir, mustaqil fikr, sog‘lom dunyoqarash, mustahkam iroda, ma‘naviy tahdidlar, millat taraqqiyoti, mafkuraviy ta‘sir, manfaat, mafkuraviy poligon, yadroviy poligon, geopolitika, axborot-kommunikatsiya, fikr, g‘oya, jaholat, ma‘rifat, immunitet, ona vatan, muqaddas din, sadoqat, mafkuraviy immunitet, ezgu maqsad, tafakkur, yosh avlod.

KIRISH

Bugungi kunda inson ma‘naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimmas bo‘lib tuyiladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib ko‘zga ko‘rinmaydigan lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin. So‘nggi paytlarda dunyoda axborot kommunikatsiya vositalari jadal sur‘atlarda rivojlanib bormoqda. Nafaqat axborot kommunikatsiya vositalari balkim sanoat, internet va shu kabi barcha sohalarham jadal sur‘atlarda rivojlanib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida globallashuv jarayonini yanada tezlashtirmoqda. Bugun insoniyat soniyasiga bir necha o‘n minglab axborotlarni almashmoqda. Dunyo sivilizatsiyasining ajralmas individi sifatida bizning mamlakatimiz ham bundan mustasno emas. Afsuski bu axborotlar ichida g‘arazli axborot xurujlari ham ko‘plab uchramoqda. Bu axborotlarni filtrlash ancha murakkab va deyarli iloji yo‘q. Bunday axborotlar yoshlarimizning ongiga o‘zining salbiy ta‘sirini o‘tkazmoqda. Mamlakat taraqqiyotiga esa zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan ulkan zarar yetkazmoqda.

Tezkor axborotlar, yangiliklar va xabarlarining bir vaqtning o‘zida bir necha tilda internet saytlari orqali, kino va video kliplar orqali tarqalishi yosh avlodlarda salbiy mafkuraviy va emotsional tasir quvvatini oshirib bormoqda. Bu kabi yangiliklar va xabarlar terrorchilarning o‘z maqsadlarini amalga oshirishga qulay imkoniyatlar yaratmoqda. Terrorchi tashkilotlar jamiyatda tegishli ijtimoiy fikrni shakllantirish va qarama-qarshi tomonga psixologik ta‘sir ko‘rsatish qo‘rquv, vahima tarqatish orqali yoshlarda ikkilanishni keltirib chiqaradi. Shunda mustaqil sog‘lom fikrga, mustahkam irodaga va qat‘iy hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lmagan yosh

avlod har turli ma‘naviy tahdidlarga, ularning oshkora va pinhona ko‘rinishdagi ta’sirlariga bardosh bera olishmaydi.

Hozirgi paytga kelib turli xil qabix niyatli shaxslar, ijtimoiy qatlam yoki diniy aqidaparast terrorchi tashkilotlar tomonidan tez sur‘atda kechayotgan globallashuv davrida internet va axborot almashish tizimlaridan o‘zlarining g‘arazli maqsadlarida keng ko‘lamda va o‘z manfaatlari uchun samarali tarzda foydalanmoqda. Aksariyat notichlik yuz berayotgan mintaqalardagi davlatlarni ko‘pchiligi rivojlanayotgan yoki rivojlanib kelayotgan davlatlar qatorida turadi. Bunday davlatlarni ayrim uchinchi kuchlar tomonidan terrorchi tashkilotlar vositasida ichkaridan yemirilib tanazzulga duchor qilib kelinmoqda. Ushbu ishlarni amalga oshirishda turli axborot xurujlaridan samarali foydalanmoqdalar. Aynan jamiyatning ichidagi bilimsiz, ilmsiz, ongida ma‘naviy bo‘shliq mavjud insonlar bo‘g‘ini bunday axborot xurujlar ta’siriga tez va ko‘p tushib qolmoqda. Eng achinarlisi bu qatlamning 70-75% ini yosh unib-o‘tib kelayotgan yoshlar tashkil etmoqda. Achinarlisi, bularning ichida mamlakat xavfsizligi va tinchligini saqlashi kerak bo‘lgan vatan himoyachilarining borligidir. Glaballashuv jarayonining yana bir o‘ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam albatta kuzatishi muqarrar. Bu haqda gapirganda men ilgari bildirgan ba’zi fikrlarni takrorlash o‘rinli deb o‘ylayman. Ta’bir joiz bo‘lsa aytish mumkinki, bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko‘proq kuchga ega. Bu masalaning kishini doimo ogoh bo‘lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo‘lsa buni sezish, ko‘rish oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta’siri va oqibatlarini tezda ilg‘ab olish nihoyatda qiyin.

Hozirgi davrda global axborot maydonida ma’lumotlar almashuvi shu qadar tez va zichki birini tahlil qilib ulgurmasdan yangisi kelaveradi. Uzoqni ko‘ra biluvchi birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an’ana va urf-odatlariga taxdid soladigan, uni o‘z ta’siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar”. Hozirgi vaqtda ko‘z o‘ngimizda dunyoning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o‘zgarishlar ro‘y berayotgan, turli mafkuralar tortushuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish har qachongidan ko‘ra muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib biz yoshlarning ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishimiz lozim. Mafkuraviy immunitet ma‘naviy, ma’rifiy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarni oddiygina qabul qilib olishini emas, balki ularni ongli ravishda tushunib yetishni, bu bilimlardan zamonaviy ijtimoiy voqealarga mafkuraviy kurashlar voqeligidan kelib chiqib, munosabat bildirish ko‘nikmalarini shakllantirish, ayrim nosog‘lom g‘oyalarga javob berish, uni qabul qilmaslik holatidir.

Mafkuraviy immunitet miliy mustaqillikning afzalliklariga bo‘lgan ishonchga quriladi. Bu ishonch esa ishontirish, tushuntirish natijasida hosil bo‘ladi. Masalan, O‘zbekiston dunyoviy davlat. Dunyoviy davlat faoliyatining asosiy tamoyillari, afzalliklari ularni diniy davlat bilan taqqoslagandagina keng va to‘liq tushunchalarni beradi. Bu dunyoviy milliy-demokratik

tuzumning mohiyati va afzalliklarini anglab yetishga olib keladi. Taraqqiyotning “O‘zbek modeli” rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, hamda boshqa davlatlarda yuz berayotgan jarayonlar, hodisalarni qiyoslash, anglab yetishga imkon beradi.

Demak, mafkuraviy immunitetni shakllantirish-muayyan mafkuraviy vaziyatda insonning o‘zi, xalqi, Vatani manfaatlarini birligidan kelib chiqib, yot g‘oyalarga qarshi tura olish malakalaridir. Shunday ekan barqarorlik va xavfsizlik jamiyatning ongilligiga, anglangan to‘g‘ri tushuncha va bilimlarga faol amal qilishiga, fikriy, g‘oyaviy birligiga, bular esa xavfsizlik ma‘rifatiga tayanadi. Ma‘lumki har qanday xastalikning oldini olish uchun, avvalo kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, ta‘bir joiz bo‘lsa, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki, yoshlarimiz milliy o‘zligini, shu bilan birga dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo‘lib yetishsin. Ana shunda johil aqidaparastlarning “da‘vati” ham, axloq-odob tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g‘oyalar ham ularga o‘z ta‘sirini o‘tkaza olmaydi. Yurtimizda sobiq sho‘ro hukumati boshchiligi davrida millatimizning ongi o‘ssishi, diniy va dunyoviy dunyoqarashimizning kengayishiga qarshilik ko‘rsatdi.

XX asrning ikkinchi yarmidan o‘zbek xalqi milliy madaniyati, ma‘naviyati taraqqiyotida mustamlakalik davri boshlandi. Mustamlakachilik siyosatida Turkistonni nafaqat siyosiy, iqtisodiy, balki ma‘naviy mustamlakaga aylantirish rejasi turardi. Buni ularning o‘zlari ham yashirmas edilar. Bu haqda Turkiston general-gubernatori I.A. Kuropatkin kundaliklarida; “Biz 50 yil tub-joy aholini taraqqiyotdan chetda tutdik”, deb qayd etgan edi. O‘rta va katta yoshli avlod eski tuzum davrlarini boshidan kechirgan va oxirgi o‘n yil davomida qanday og‘ir yo‘llarni bosib o‘tganimizni yaxshi biladi. Ko‘pchiligimiz kechagi hayotimiz, kechagi tariximizga jonli guvohimiz. Guvohgina emas, o‘sha jarayonlarning bevosita ishtirokchilarimiz. Lekin endi voyaga yetayotgan yoshlarimiz qanday g‘oya asosida, qanday g‘oya negizida tarbiya olishi, qanday ezgu maqsadlarga intilishi kerak? Qanday mafkura va tafakkur ular uchun qurol bo‘lib xizmat qilmog‘i lozim.

Ayni damda dunyoda sodir bo‘layotgan qurolli mojarolar shuni ko‘rsatmoqdaki, davlatning kuch-qudratini uning qay darajada yuqori va zamonaviy qurol-aslaha hamda texnika bilan taminlanganligi belgilab bermas ekan. Balki aynan fuqarolari vatanparvar, o‘z yurtiga sadoqatli, manan yetuk, professional kadrlar bilan taminlanganligi asosiy ko‘rsatkichlardan biri ekanligi ko‘rinib qoldi. So‘nggi yillarda sodir bo‘lgan qurolli mojarolar va mahalliy urushlarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki nafaqat oliy talim tizimidagi kadrlarni balki butun mamlakat fuqarolarining ongida va qalbida Vatanga bo‘lgan muhabbat, o‘z yurtiga mislsiz sadoqat kabi tuyg‘ularni shakllantirish va chuqur singdirish lozim. Misol tariqasida, Rossiya Federatsiyasining hududida e‘lon qilingan umumiy safarbarlik va undan keyin mamlakat fuqarolarining boshqa davlat hududlariga chiqib ketishlari va boshqa mamlakat fuqaroligini qabul qilishlarini keltirib o‘tishning o‘zi kifoya. Hech kim kafolat bera olmaydiki yaqin kelajakda bizning davlatimiz fuqarolari umumiy safarbarlik e‘lon qilinganda bu ishlarni takrorlamaydi deb. Shunday ekan har bir yosh avlodni yuksak vatanparvar, ona Vatanga

muhabbat singari oliy tuyg‘ular bilan yo‘g‘rilgan fikr va g‘oyalar bilan tarbiyalashimiz zarurligi eng dolzarb masala bo‘lib qolaveradi.

Bugungi kunda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham xavfli kuchga aylanmoqda. Mustaqillikka erishgach, yosh davlatlar o‘z mustaqilliklariga tahdid solayotgan ichki va tashqi xavflarni dastlab kutmadilar, shu sabab ularga qarshi tayyorgarlik ham ko‘rmadilar. Bunday vaziyat, vaqt va imkoniyatdan foydalangan yangi, yot siyosiy guruhlar o‘z g‘oyalarini targ‘ib tashviq qilishda ancha ishlarni qilib olishadi. Natijada nafaqat odamlarning mafkurasida, balki ayrim davlatlarning axborot maydonida ham bo‘shliqlar paydo bo‘ldi. Mana shunday vaziyatlarda yosh avlod o‘z mustaqil fikriga, milliy qadriyatlariga, mustahkam irodaga ega bo‘lmasa, ma‘naviy tahdidlarga bardosh bera olmaydi. Shunday ekan yosh avlodni maktablarda ilk talim berishdan boshlab mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirishimiz o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi.

XULOSA

Biz yangi O‘zbekistonni qurmoqchi ekanmiz, o‘sib kelayotgan yosh avlodni, farzandlarimizni shunga munosib qilib tarbiyalashimiz kerak. Hozirgi murakkab sharoitda xalqimiz, avvalo o‘sib unib kelayotgan yosh avlodimiz ongi va qalbida mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu ishni bamisoli yosh niholga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog‘bondek noziklik va mehr bilan, oqilona yo‘l bilan amalga oshirish lozim. Hozirgi kunda ko‘plab mamlakatlarda yuzaga kelayotgan notinchliklar va tartibbuzarliklar natijasi va sababini o‘rganib, tahlil qilib quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin. Yosh avlodga barcha turdagi ta‘lim dargohlari ustoz va murabbiylarining hayotiy va malakaviy ko‘nikmalarini ilm-marifat asosida qalbi va ongiga singdirish, mamlakatimiz hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda ularning bilimlarini oshirib borish, yon-atrofimiz va jahonda ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalarida to‘sqinlik qilayotgan tizimli muammolarni yechish bo‘yicha zaruriy ma‘lumotlar bo‘yicha takliflar berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. RahimjanovD,Ahmedov R Mafkuraviy immunitetni mustahkamlash asoslari Toshkent-2020
2. I.A.Karimov Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch Toshkent-2008 113-b.
3. I.A. Karimov Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovart maqsadimiz. Toshkent-2000 465-b.
4. JakbarovM, Abbasova Sh.I.A.Karimov Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma‘sulmiz Toshkent-2001. 265-b.
5. Milliy g‘oya va milliy manfaatlar. Toshkent-2014.